

# SCIENCE

PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

## Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 11

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 11 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемурастов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Kucharov Jamshid Qulnazarovich*  
ROSSIYANING PAXTA YETISHTIRISH BORASIDAGI SINOV-TAJRIBALARI XUSUSIDA AYRIM  
MULOHAZALAR (TURKISTON TO'PLAMI MATERIALLARI ASOSIDA) ..... 11-14
- Тағбаев Амирбек Аширбаевич*  
Б.Х.КАРМИШЕВА АСАРЛАРИДА “ИЛК ҚАБИЛАЛАР”ГА ОИД ЭТНОНИМЛАР  
МАСАЛАСИ ..... 15-23
- Ҳамаев Нодирбек Мўминович*  
ТУРКИСТОНДА ИСТИҚЛОЛ УЧУН КУРАШНИНГ РИВОЖЛАНИБ БОРИШИ ВА УНИНГ  
МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ (1920-1924) ..... 24-32
- Tilavova Shahnoza Salohitdinovna*  
XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUHORO AMIRLIGIDA JADIDLARNING  
FAOLIYATI ..... 33-36
- Қозоқов Тоҳиржон Қодиралиевич*  
НАМАНГАНДА ҚОЗИЛАР ВА СУДЛАР ТАРИХИ ..... 37-42
- Артикбаев Ойбек Салимахамаатович*  
ЎЗБЕК-ҚОЗОҚ ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИНИНГ ОИЛАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА  
МАРОСИМЛАРДА НАМОЁН БЎЛИШИ (XX АСР ТОШКЕНТ ВОҲАСИ МИСОЛИДА) ..... 43-56
- Atavullayeva Shaxlo Musoyevna*  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI KONSTITUTSIYASINING YARATILISH TARIXI ... 57-62

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Қўчқаров Файзулло Абдужабборович*  
ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР – АГРАР СОҲАНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ  
МУҲИМ ОМИЛИ ..... 63-70
- Shao Junling*  
ANALYSIS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S REGIONAL ECONOMY .. 71-76
- Ashirov Nurmurod Qulmatovich*  
RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN KENG KO'LAMDA FOYDALANISHDA BANK TIZIMINI  
IMKONIYATLARINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 77-82
- Togayev Salim Sobirovich*  
BANK XIZMATLARIGA BO'LGAN ISHONCHNI OSHIRISH YOHUD MIJOSNI JALB QILISHNING  
SAMARALI YO'LLARI ..... 83-89
- Саттаров Ғанижон Озодович*  
МИНТАҚА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИДАН  
ФОЙДАЛАНИШ ОМИЛЛАРИ ..... 90-96

<i>Yakubova Samira</i> LEVERAGING PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: STRATEGIES FOR OPTIMAL INVESTMENT FINANCING .....	97-102
<i>Abdualiyev Hamidulla Toxirjonovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASINING INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH TIZIMIDAGI LOYIHALARNI BOSHQARISH OFISI .....	103-109
<i>Egamberdiyeva Salima Rayimovna</i> XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....	110-118
<i>Xolmamatov Diyor Haqberdievich</i> SANOAT KORXONALARINING BOZORDAGI MAVQEINI BAHOLASHDA SPACE TAHLIL USULIDAN FOYDALANISH .....	119-127
<i>Gafurova Dilshoda</i> INNOVATIVE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: ASSESSING STRATEGIES AND IMPACTS .....	128-132
<i>Xomidov Abdugaffor Axmadjonovich</i> TA'LIM SOHASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH .....	133-139
<i>Raxmonov Mirvoxid Rajabovich</i> NAVOIY VILOYATI ASOSIY KAPITALIGA INVESTITSIYALAR TUZILISHI VA DINAMIKASI TAHLILI .....	140-149
<i>Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li</i> DON VA DONNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING XIZMATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA SNW TAHLIL USULINING O'RNI VA UNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI .....	150-159
<i>Aziza Umarova</i> AKSIYALARNI BIRLAMCHI OMMAVIY JOYLASHTIRISH (IPO) AMALIYOTI ORQALI MOLIYAVIY RESURSLARNI SHAKLLANTIRISHNING HORIJ TAJRIBASI .....	160-167
<i>Абдуллаев Бунёд Ўткирович</i> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	168-178
<i>Matjonov Bekjon Ravshonbekovich</i> SOME CHARACTERISTICS OF ENSURING FOOD SAFETY IN UZBEKISTAN .....	179-185
<i>Алиматова Наргис Абдухалиловна</i> КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ-РАҚОБАТБАРДОШЛИК ОМИЛИ.....	186-197

### 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Kobulniyazova Gulchexra Toshpulatovna</i> F. NITSSHE “HAYOT FALSAFASI” KONSEPSIYASI IJTIMOY RIVOJLANISHNING IRRATSIONAL ASOSI .....	198-204
<i>Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich</i> INSON MOHIYATI, UNING BIOLOGIK VA IJTIMOY TABIATI .....	205-211
<i>Турсунов Лочин Эркинович, Хакимова Дилноза Юсуфхоновна</i> РАЗВИТИЕ ПРАВОВОГО СОЗНАНИЯ У ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ .....	212-218
<i>Urinboyev Dilmurod Tura o'g'li</i> HUQUQIY FAOLLIK VA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI.....	219-225
<i>Яздонов Зикирилло Шукуруллоевич</i> АЛ-ҲАКИМ АТ-ТЕРМИЗИЙНИНГ СЎФИЁНА ҚАРАШЛАРИ ВА МАЛОМАТИЙЛИККА МУНОСАБАТИ .....	226-231
<i>Nabiyev Maxsud Abdumannonovich</i> IQTISODIY MADANIYATNING MAZMUNIVAMOHIYATI .....	232-238
<i>Haydaraliyev Shuhratjon</i> MARKAZIY OSIYODA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	239-243
<i>Хамраев Сардорбек Шарафутдинович</i> ЭКОТУРИЗМ ЖАРАЁНЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯСИ..	244-250
<i>Xashimov Sheraxon Jo'raxonovich</i> O'ZBEKISTONNING XALQARO IMIDJINI YUKSALTIRISHDA MILLIY TURIZMDAGI EKOLOGIK TURIZMNING TUTGAN O'RNI .....	251-260
<i>Хатамова Рашида Закиржановна</i> ПАТРИОТИЗМ КАК ЭЛЕМЕНТ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ .....	261-266
<i>Патиев Холдор Икромович</i> ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ .....	267-275
<i>Ismoilova Hayitxon Maxammadjonovna</i> FARG'ONA VODIYSIDA OILA URF-ODATLARI VA QADRIYATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOY JARAYONLARIDA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI .....	276-280
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> GLOBALLASHUV VA OILA AXLOQIY MADANIYATINING O'ZARO ALOQADORLIGI .....	281-287
<i>Raxmankulov Farhod Raximkulovich</i> MULKDORLAR QATLAMIDA IJTIMOY MAS'ULIYAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	288-292
<i>Shirinov Anvar Qanoatovich</i> MARKAZIY OSIYODA INSON TARAQQIYOTINING DOLZARB MASALALARI .....	293-299

*Xandamova Marifat Akramovna*  
 “OSOR AL-BOQIYA” – ABU RAYHON BERUNIY ILMIY IJODINING DURDONASI..... 300-304

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
 IJTIMOY DAVLATDA IJTIMOY ADOLATNI TA’MINLASH VA IJTIMOY INSTITUTLARNING  
 MAQSADI ..... 305-311

*Karimov Rahmat Rahmonovich, Bekbayev Rauf Rustamovich*  
 MADANIY ANTROPOLOGIYA FANINING PREDMETI VA IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR  
 TIZIMIDAGI O’RNI ..... 312-320

*Talapov Baxriddin Alijanovich*  
 DEMOKRATIYA VA SHARQONA BOSHQARISHNING ETNODIFFERENSIAL  
 XUSUSIYATLARI ..... 321-326

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Ayuzmuratova Nurjamal Dastembayeva*  
 КАРАКАЛПАКСКИЕ ЖЕНСКИЕ ЛИЧНЫЕ ИМЕНА..... 327-332

*Olga Filippova*  
 ADDING REDUNDANCY FUNCTIONS TO CLUSTERED IMPLEMENTATION ..... 333-345

*Egamnazarova Zaynab Xolmurod qizi*  
 INGLIZ TILIDAGI RIELTORLIK FAOLIYATIGA OID TERMINLARNING O’ZBEK TILI O’ZLASHISH  
 MASALALARI ..... 346-351

*Narzieva Gulnoza Akbarovna*  
 LEKSIK BIRLIKLARDA MILLIY – MADANIY KOD IFODASI ..... 352-357

*Qodirova Mukaddas Tog’ayevna, Ibragimova So’g’diyona Ikrom qizi*  
 INGLIZ-O’ZBEK TILLARIDA VERBAL VA NOVERBAL MULOQOT TABULARINING  
 QO’LLANILISHI ..... 358-362

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Tўраев Сардор Абдихаким ўғли*  
 ИНТЕРНЕТ ТАРМОҒИДАН ФОЙДАЛАНИБ СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЖИНОЯТЛАРНИНГ  
 ОЛДИНИ ОЛИШНИНГ УМУМИЙ ЧОРАЛАРИ ..... 363-371

*Атаев Шокир Куранбаевич*  
 ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ МАЪМУРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ  
 АСОСЛАРИНИ ЯНАДА ЛИБЕРАЛЛАШТИРИШ ..... 372-377

*Юсупов Илхомжон Ибодиллаевич*  
 ҲУҚУҚИЙ АНИҚЛИК ПРИНЦИПИНING АЙРИМ НАЗАРИЙ - ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ  
 ХУСУСИДА ..... 378-385

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Adizova Nigora Baxtiyorovna*  
 MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINING DIVERGENT  
 TAFAKKURINI TARBIYALASH VA RIVOJLANTIRISH ..... 386-390

<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARI TALABALARINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN ISPAN TILINI O'QITISHDA VIRTUAL REALLIKDAN FOYDALANISH .....	391-400
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	401-406
<i>Kenjabaev Jahongir Abdisalimovich</i> METHODOLOGY FOR TEACHING ENGLISH BASED ON INTERNET RESOURCES .....	407-411
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i> TA'LIMNI LOYIHALASHTIRISH JARAYONIGA SEMIOTIK YONDASHUV .....	412-417
<i>Ibragimova Ehtiyotxon Ismailovna, Sobirova Nargiza Numonjonovna</i> TA'LIMDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI .....	418-422
<i>Babayeva Maxfuza Abduvaitovna</i> TA'LIMDA FANLARARO BOG'LANISHNING AHAMIYATI .....	423-429
<i>Nazarova Zarrina Allaberdiyevna</i> MAKTAB O'QITUVCHILARINING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	430-435
<i>Jumayeva Gulnora Tursunpulatovna</i> O'QITUVCHILARINING KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART- SHAROITLARI .....	436-442
<i>Умаров Азиз Авазович</i> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА .....	443-447
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI(STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASI MISOLIDA).....	448-453
<i>Otamurodova Shamsu Qamar Otamurodovna</i> DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIGINI YUZAGA CHIQRISH METODIKASI .....	454-461
<i>Komilov Nodirbek Bokijonovich</i> THE IMPORTANCE OF THE HISTORY OF MEDICINE IN INCREASING THE EXCLUSIVE COMPETENCE OF FOREIGN STUDENTS .....	462-466
<i>Sapieva Nargiza Mamayusufovna</i> IQTIDORLI O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH .....	467-478
<i>Norqobilova Rayxona Davlatovna</i> XORIJIY FANLARDAN BOLALARNING MAKTABGA TAYYORGARLIGINING DIAGNOSTIKASI .....	479-484

---

<i>Mamatkodirov Maxammadali Mamatisakovich</i> SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN RAQAMLI VOSITALAR VA PLATFORMALARNI HAMDA O‘QITISH USULLARINI TANLASH .....	485-492
<i>Irgasheva Umida Raimjanovna</i> TALABALAR KASBIY NUTQ KOMPETENTSIYASINI STEAM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	493-498
<i>Turayeva Lolaxon Yuldashevna</i> ERKIN MEXANIK TEBRANISHLARNI MAPLE DASTURIY VOSITASI YORDAMIDA O‘RGANISH VA NAMOYISH ETISH .....	499-505
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i> TALABA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	506-510
<i>Kenjabayeva Dilafruz Abdisalimovna</i> OLIY O‘QUV YURTI SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHINI TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK KOMPONENTI .....	511-518
<i>Xasanova Gulnoza Raxatjanovna</i> KREDIT-MODULLI TA‘LIM TIZIMI JARAYONIDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI .....	519-525

13.00.00- Педагогика фанлари

**Uralova Muxabbat Sanjar qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
“Pedagogika” kafedrası o`qıtuvchısı  
[uralovamuhabbat50@gmail.com](mailto:uralovamuhabbat50@gmail.com)

### **BO`LAJAK BOSHLANG`ICH SINIF O`QITUVCHISINING IJODIY-METODIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Annotatsiya.** Maqolada bo`lajak boshlang`ich sinf o`qıtuvchısınıng ijodiy-metodik faoliyatını takomillashtırish haqida so`z yuritilgan. Boshlang`ich sinf o`qıtuvchısınıng kasbiy faoliyatga tayyorgarlıgını va ijodiy-metodik faoliyatını takomillashtırish yo`lları va tavsiyalar keltirib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** Ijodkorlik, metodik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, ta`lim, pedagogika, o`qıtuvchi.

---

**Uralova Muxabbat Sanjar qizi**

Termez University of Economics and service  
Teacher of the Department” pedagogy”

### **IMPROVING THE CREATIVE-METHODICAL ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER**

**Abstract.** The article talks about improving the creative-methodical activity of the future elementary school teacher. Ways and recommendations for improving the preparation for professional activity and creative-methodical activity of primary school teachers are given.

**Key words:** Creativity, methodical activity, professional training, education, pedagogy, teacher.

---

**Уралова Мухаббат Санжаровна**

Термезский университет экономики и сервиса  
Преподаватель кафедры «Педагогика»

### **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТВОРЧЕСКО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В статье говорится о совершенствовании творчески-методической деятельности будущего учителя начальной школы. Даны пути и рекомендации по совершенствованию подготовки к профессиональной деятельности и творчески-методической деятельности учителей начальных классов.

**Ключевые слова:** Творчество, методическая деятельность, профессиональная подготовка, образование, педагогика, учитель.

---

**Kirish.** Aytish lozimki, respublikamizda yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida qaralib kelinadi. Xususan, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha eng birlamchi vazifalar belgilab beriladi [1]. Mazkur tarixiy hujjatdan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy-metodik faoliyatini va kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish, bu maqsadga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish va ularning samaradorligini oshirish, integrativ yondashuvni qo'llashga qaratilgan yangi pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish bugungi kun mutaxassislari va tadqiqotchilari oldida turgan eng muhim vazifalar sanaladi.

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri har bir o'quvchining salohiyatini, ichki imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarish orqali ularning mustaqil bilim topish va o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'la borishlari uchun ijodiy muhit yaratishdan iboratdir. O'quvchi shaxs sifatida shakllana borib, o'z oldiga maqsad qo'yish, qo'yilgan maqsadga erishish uchun vazifalarni rejalashtirish, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bilan bog'liq o'quv-ta'limiy muammolarni mustaqil tarzda hal eta olishdek fazilatlarini o'zlashtirishiga erishishi yuqorida keltirilgan asosiy maqsadlarga uyg'un vazifalardir. Umumiy holda aytganda, umumta'lim maktabi universal bilim, ko'nikma, mahorat va malakalarni egallashning usullarini o'quvchining o'zi izlashi va topishi uchun zarur bo'lgan muhit va shart-sharoitlar rejali, maqsadli mujassamlashtirilgan muassasadir. Aytib o'tilgan muhit va shart-sharoitlardan samarali natija olish uchun amalga oshiriladigan o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy ishlarning asl mohiyatini yaxlit ko'rishda quyidagicha ifodalash mumkin: "Maktab o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini mustaqil tashkil eta olishlari va bu borada tajriba orttira borishlari, shaxsiy mas'uliyatni his etishlari, ya'ni eng muhim kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun dastlabki poydevor bo'lib xizmat qilmog'i kerak" [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Ta'kidlash kerakki, mutaxassis ushbu o'rinda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining eng dastlabki davrini, ya'ni boshlang'ich ta'limni nazarda tutgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ijobiy hal etishda maktab eng birlamchi va asosiy vosita bo'lgani holda, pirovard natijaga ta'sir etuvchi qator faktorlar ham mavjud. Mazkur faktorlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- umumta'lim maktabida ilmiy-ijodiy muhitning mavjudligi;
- ta'limiy-kommunikativ sharoitlarning rivojlanganligi;
- umumta'lim maktabidagi moddiy-texnik bazaning zamonaviy ta'lim tizimi talablariga muvofiqlik darajasi;

- boshlang'ich sinf o'quvchisining kasbiy tayyorlanganligi va shu kabilardir. [3] Sanab o'tilgan faktorlarning dastlabki uchtasi bizning tadqiqotlarimiz doirasida o'rganiladigan masala mavzusiga bilvosita aloqador bo'lgani holda, mazkur faktorlarning boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorlanganlik darajasiga ta'siri yetarlicha o'rganilganini hisobga olib, qayd etamizki, biz uchun umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bajarilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarga ta'sir etuvchi faktorlardan eng asosiysi va qolaversa, muayyan ma'noda individual hal etilishi mumkin bo'lgan faktor hisoblangan "boshlang'ich sinf o'quvchisining kasbiy tayyorlanganlik" faktori muhim sanaladi. Shu jihatdan, zamonaviy sharoitlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdek muhim masalani hal etishning poydevori sifatida qaraladi. Negaki, "boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi dastlabki, binobarin, hal

qiluvchi bosqich hisoblanib, aynan mazkur bosqichga xos davrda asosiy ilmiy bilimlarning egallanishi, individual ijodiy qobiliyatning rivojlanishi, jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan shakllana borish kabi muhim jarayonlarga tamal toshi qo'yiladi" [4].

Ta'lim sifatini yanada yaxshilash ko'p jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, intellektual darajasini ko'tarish, umumiy tarzda esa uning kompetentligini yuksaltirish kabi masalalarning yechimiga bog'liq. Aytish kerakki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalarning yechimini izlash dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda pedagogika va metodika sohasidagi tadqiqotlarning bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari bu borada o'z oldiga talabalarni ijtimoiylashtirish vazifasini qo'yadi va ayni vaqtda, jamiyatning o'zgarib borayotgan sharoitlarini hisobga oladi. Shundan kelib chiqib, biz ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kompetentligini yuksaltirish masalasi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratish bilan mazmunan bir xil ahamiyatga ega deb ayta olamiz. OTM bitiruvchisida shakllangan kompetensiyaviylik va kompetensiyalar esa pedagogik amaliyot davrida ilmiy-ijodiy qobiliyat va kasbiy kompetensiyalarning muhim komponentlari sifatida davomli rivojlana boradi.

Sohaga oid adabiyotlarda garchi "metodik faoliyat", "ilmiy-metodik faoliyat", "ijodiy faoliyat" tushunchalari keng qo'llanilsa-da, "ijodiy-metodik faoliyat" tushunchasining mohiyatini ochib berishga qaratilgan talqinlar va mazkur tushunchaga berilgan ta'riflar deyarli uchramaydi. Buning sababi "ijod" fenomenining barcha faoliyat tur va ko'rinishlariga xos ekanligida deb hisoblaymiz (ya'ni, ilmiy-ijodiy faoliyat, ijodiy tadqiqot faoliyati, ijodiy-kommunikativ faoliyat va shu kabilar singari) hamda ushbu fikrdan kelib chiqib, tadqiqotimiz davomida qo'llaniladigan "ijodiy-metodik faoliyat" tushunchasiga ijodiy faoliyat va metodik faoliyatlarning in'ikosi, maqsad va mohiyat nuqtai nazaridan mujassamlashgan shaklidagi xos faoliyat turi sifatida qaraymiz. Binobarin, "ijodiy-metodik faoliyat" tushunchasining tub mohiyatini oydinlashtirish va uning pedagogik amaliyotdagi ahamiyatini baholash uchun ijod va metodik faoliyat tushunchalariga mufassal to'xtalib o'tamiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mamlakatimiz ta'lim tizimida metodik faoliyat tushunchasining pedagogik amaliyotda keng qo'llanila boshlanishi mustaqillik bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida ta'lim tizimida boshlangan tub islohotlar davriga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik faoliyati unda metodik mahoratlar shakllanishining amaliyotda namoyon bo'lishi va o'quv-tarbiya jarayonlarida takomillashib borishi, demakdir. Ta'lim sohasida kechayotgan har qanday o'zgarish va yangilanish metodik mahoratlar doirasining kengayib borishiga turtki bo'ladi, shu barobarida, boshlang'ich sinf o'qituvchining metodik mahoratlari doirasining kengayib borishi, o'z navbatida, uning yangilik va o'zgarishlarni qabul qiluvchanligini va yangilangan ta'lim muhitiga moslashib boruvchanligini ta'minlaydi. [5]

Zamonaviy metodika, pedagogika fanlari nuqtai nazaridan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z metodik mahoratlarini kengaytirib, takomillashtirib borishi uchun metodik faoliyatning quyidagi umumlashtirilgan mexanizmlarini o'zlashtirishi lozim bo'ladi:

- o'quv ishlarini tashkillashtirish va o'quvchilarda motivatsiya uyg'otishning dastlabki tajribalarini o'zlashtirish;

- mavjud usullardan foydalanib, birlamchi kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'yish asnosida navbatdagi harakatlarning individual algoritmini ishlab chiqish;
- o'z faoliyatini muntazam nazorat qilish, tuzatish, o'zgartirish va yangiliklar kiritib borish;
- o'z-o'zini rivojlantirishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangi usullar izlash.

[6]

Shunday qilib, metodik faoliyat deganda biz o'qituvchining muayyan fan bo'yicha o'quv va ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tarzda amalga oshirishiga qaratilgan loyihalash, o'quv-ta'limiy vositalarni konstruksiyalash va ishlab chiqishdan iborat kasbiy faoliyatini tushunamiz. Zamonaviy ta'lim tizimida metodik faoliyatni olib borish fikrlash, variativ tavsiyalar orasidan maqbulini tanlash, "o'qituvchi-o'quvchilar" tartibidagi kommunikativ aloqalarni muvofiqlashtirib borish, o'quvchilarning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan izlanishlar va tadqiqotlar singari qobiliyat talab qiluvchi aqliy-fikriy harakatlarni talab qiluvchi murakkab jarayondir [7].

**Tahlillar va natijalar.** N.YE.Erganova, V.I.Kuznetsov, N.O.Nikandrov kabi tadqiqotchilar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik faoliyati ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablarning mazmunidan kelib chiqqan holda, quyidagi muhim jihatlarda namoyon bo'lishi lozim deb hisoblaydilar:

- o'quv-dasturiy hujjatlar va metodik majmualarning tahlilini amalga oshirish;
- o'qitishning variativ tizim va majmualarini tahlil etish asosida maqbul tizimni tanlash;
- fanga oid o'quv materiallarining metodik tahlil etish;
- darslar tizimini maqsad va natijalarni taqalastirgan holda rejalashtirish;
- dars davomida o'quv axborotlari va mavzuga oid ma'lumotlarni taqdim etishning tartibini qurish va modellashtirish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modellashtira olish;
- o'quv faoliyatini boshqarish va nazorat qilishning shakl va ko'rinishlarini ishlab chiqish;
- dars mashg'uloti davomidagi motivatsiyaviy jarayonlarni qurish va boshqarish;
- dars mashg'ulotiga tayyorlanish va uni o'tkazish davomida refleksiv muhit yaratish va shu kabilardir [8].

Ijodiy-metodik faoliyatning negiziy asosi deb qaraladigan "ijod" fenomeni bir qadar murakkab tushuncha hisoblanadi. Falsafiy va pedagogik-psixologik adabiyotlarda ijod inson yoki insonlar guruhining obyektiv va subyektiv jihatdan yangi moddiy, intellektual va ma'naviy ne'matlar yaratishga qaratilgan faoliyati, deya tavsif etiladi.[9]

Ijod avval insonning botinida tug'iladi va subyektiv jihatdan yangi intellektual, moddiy va ma'naviy mahsulot yaratish jarayonida o'z bilim, mahorat, ko'nikma, tashqi olam haqidagi tasavvur, borliqni idrok etishdagi tajribasi, salohiyati, kompetensiyalari – barcha-barchasini namoyon etadi. Ijod mahsulini yaratish jarayonida mohiyatan ilmiy tadqiqotga xos bo'lgan barcha usullar – tahlil, mulohaza, kuzatish, boshqalar tajribalarini tanqidiy-tahliliy o'rganish, qiyoslash, mantiqiy xulosalar asosida farazlar ilgari surish, farazni asoslab berish uchun dalillar axtarish, dalillarni argumentlash va shu kabi psixologik-intellektual harakatlar sodir etiladi.

"Ijod" tushunchasi haqida ko'plab ta'riflar, uning mohiyatiga qaratilgan yondashuvlar mavjudligiga qaramasdan, uni konseptual anglash masalasida ayrim noaniqliklar ham yo'q emas: mazkur fenomenning mohiyati qandayligi haqidagi savob o'z to'liq javobini topgan emas.

Biz aynan pedagogika sohasidagi, yanayam aniqrogʻi, boshlangʻich sinf oʻqituvchisining ijodiy-metodik faoliyati uchun negiziy asos vazifasini oʻtashi lozim boʻlgan ijod hodisasi haqida tadqiqotlarimiz uchun muhim xulosa chiqarmoqchi ekanmiz, mazkur savolning javobini oydinlashtirishimiz zarur boʻladi.

Xoʻsh, ijod – borliqning inson tasavvurida aks etishimi, shaxs xususiyatlarining rivojlanishimi, faoliyat turi yoki maʼlum faoliyatning tashkil etuvchi komponentimi? Ijodni hayotning alohida jarayonlar asnosida kechadigan shakli deya tavsif etuvchi qarashlar ham bor.

Insonning oʻz-oʻzini anglashi uning oʻzi yaratgan obyektlardan iborat olam vositasida kechadi. Insonning mohiyati nimadir yaratish, qurish, bunyod etish, ishlab chiqarish kabi faoliyat orqali belgilanishi natijasida u mazkur mahsulotlarning yanada mukammal boʻlishini istaydi. Bu istak unda motivatsiya uygʻotadi. Bu doimiy takrorlanuvchi fikrdan shunday xulosaga kelish mumkinki, birinchidan, ijod fenomeni aynan muayyan faoliyat bilan uygʻunlikdagina mavjud: faoliyatsiz ijod boʻlishi qatʼiyan mumkin emas va ikkinchidan, ijod insonning u oʻzi yaratgan (qurgan, barpo etgan, ishlab chiqargan va shu kabilar) obyektlarni mukammallashtirish zarurati natijasida hosil boʻlgan motivatsiyaning natijasidir. Uchinchi xulosa shuki, insonning shaxsiy va kasbiy sifatlari, xususiyatlari, oʻziga xosliklari, ichki salohiyati, iqtidori faoliyat koʻrsatish davomida rivojlanadi va aynan mukammallashtirish motivatsiyasi vositasida maʼlum maʼnoda umumlashadi, yaʼni ijod insonning butun potensialini, ichki salohiyatini talab qiluvchi hodisadir. Demak, ijodni motivatsiya asnosida olib boriladigan faoliyat davomida insonning barcha (ochilgan va ochilmagan) xususiyatlar ining namoyon boʻlish hodisasi, deya tavsif etgan talqinni qabul qilishimiz tadqiqotlarimizda koʻzda tutilgan maqsadlariga muvofiq keladi.

Yuqorida “metodik faoliyat” va “ijodiy faoliyat” tushunchalariga berilgan taʼriflarni umumlashtirib, ijodiy-metodik faoliyatning maqsadi, mohiyati va uni amalga oshirish asnosida bajariladigan taʼlimiy va tarbiyaviy vazifalar haqida zarur xulosalar chiqarishimiz mumkin.

Boshlangʻich sinf oʻqituvchining ijodiy-metodik faoliyatga tayyorligi boshlangʻich taʼlim tizimiga davlat va jamoatchilik tomonidan qoʻyilayotgan zamonaviy talablar va ijtimoiy ehtiyojlarga javob sifatida qaralmogʻi lozim. Mazkur masalaga oid mulohazalarni bildirishdan avval, biz boshlangʻich sinf oʻqituvchisining ijodiy-metodik faoliyatga tayyorlik darajasini belgilovchi mezonlarga toʻxtalib oʻtishimiz lozim. Savol anʼanaviy tarzda qoʻyiladi: yaʼni biz qanday shaxsiy va kasbiy sifatlarga ega boʻlgan boshlangʻich sinf oʻqituvchisini ijodiy-metodik jihatdan tayyorlangan deb ayta olamiz?

Birinchi galda, oʻqituvchi bu sohadagi pedagogik jarayonlarning metodologik negizi haqida yetarlicha bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim. Shuningdek boshlangʻich sinf oʻqituvchisi:

- taʼlim tizimi va oʻqitishning tamoyillari, shakl, metod, texnologiyalari hamda ilmiy bilishning vositalarini chuqur tahlil eta olishi;
- pedagogik jarayonlardagi tendensiyalar, gʻoyalar, mavjud voqeliklarni teran anglashi, baholay olishi va oʻz faoliyatiga tatbiq qila bilishi;
- oʻquv maqsadlari bilan bogʻliq pedagogik va taʼlimiy vazifalarni loyihalashtirish koʻnikmalariga ega boʻlishi lozim boʻladi [ 10]

Pedagogik jarayonlarning metodologik negizi pedagogika nazariyasining tuzilmasi, asoslari, joriy etiladigan yondashuvlar tamoyillari, bilimlarni oʻzlashtirish usullari haqidagi bilimlardan iboratdir.

**Xulosalar.** Pedagogning ijodiy-metodik faoliyati haqida gap ketar ekan, aytishimiz lozimki, mazkur faoliyatning asosiy yo'nalishi shaxsning (ya'ni o'qituvchining) o'z kasbiga, faoliyat obyektiga (ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlariga), pedagogik bilim va malakalarni o'zlashtirishga, o'z shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qiziqishlarida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy-metodik faoliyatini ko'rsatuvchi alomatlar, belgilarni o'rganish va tadqiq etish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, ijodiy-metodik jihatdan individual o'qituvchilarni quyidagi sifatlar birlashtirib turadi:

- pedagogik jarayon ishtirokchilariga shaxs sifatida qiziqish;
- bir-birlarini tez tushunish;
- har qanday mazmundagi yangilikni izlanishga undovchi omil sifatida qabul qilish;
- o'quvchilar bilan muloqotni qadriyat darajasiga ko'tarish va shu kabi zohiriy alomatlardir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining faoliyatidagi ijodiylik, ijodiy-metodik tayyorlik, kompetensiya, kompetentlilik kabi sifat va xususiyatlar uning shaxsiy sifatleri bilan uyg'unlashadi va uning pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasini belgilaydi. Maqolamizda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z faoliyati davrida bu sifatlarga ega bo'la borishi va har qanday sifat (qobiliyat, iqtidor)ning shakllanishi uchun metodologik negizga ega bo'lgan pedagogik muhit va shart-sharoitlar lozimligini asoslab berildi.

#### Adabiyotlar/Литература/References

1. O'zbekiston Respublikasining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi".
2. Vigotskiy L.S.Voobrajeniyе i tvorchestvo v detskom vozraste. M.-1991 g
3. Elkonin D.B.Psixologiya obucheniya mladshеgo shkolnika. – M. 2002 g.
4. Vidineyev N.V. Priroda intellektualnix sposobnostey cheloveka. -M.: Nauka, 1991.
5. Gmurman V.YE. Tendensii razvitiya pedagogiki: Metodologicheskiye problemi razvitiya pedagogicheskoy nauki / Pod red. Atutova P.R., Skatkina M.N. i dr. M.: Pedagogika, 1985. S. 10 - 56.
6. Anisimov, V.V. Obshiyе osnovi pedagogiki : ucheb. dlya vuzov /V.V. Anisimov, O.G. Groxolskaya, N.D. Nikandrov. – M. : Prosvesheniye, 2006. – 574 s.
7. Kuznetsov V.I. Prinsipi aktivnoy pedagogiki: Chto i kak prepodavat v sovremennoy shkole. Uchebnoye posobiye - M.; Akademiya, 2001- s. 120.
8. Erganova, N.YE. Metodika professionalnogo obrazovaniya : ucheb. pos. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / N.YE. Erganova. – M. : Izd. sentr «Akademiya», 2007. – 160 s.
9. Loyfman I.Y. Tvorchestvo - sushnostnaya sila cheloveka i koren kulturi. // 12 leksiy po filosofii. - Yekaterinburg. - 1996. S 24.
10. Shaxgulari V. V. Podgotovka budushix uchiteley v tvorcheskoy deyatelnosti v shkole. A.: G'lim, 2002.-255 s.
11. Shaxnoza, D. Muhabbat. U. (2021). Boshlang'ich Sinf O'quvchilarining Ijodiy Faoliyatini Shakllantirish Yo'llari. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 85-92.
12. Уралова, М. (2022). О 'quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda texnologiya fanining o' rni. *Общество и инновации*, 3(2/S), 356-361.
13. Uralova Muhabbat Sanjar qizi (2023). THE ROLE OF AN INTEGRATIVE APPROACH IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *World Bulletin of Social Sciences. Vol. 21, April, 2023. ISSN: 2749-361X 73-77.*

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 11 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).